PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

ZAMONAVIY GLOBAL TAHDIDLAR KONTEKSTIDA EKSTREMIZM VA TERRORIZM FENOMENI

Sobirova Hilola Azim qizi
Universitiy of Business and Science
Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar fakulteti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq
ta’limi yo‘nalishi 25-01-guruh talabasi
sobirovhilola350@gmail.com
Ilmiy rahbar:
Akramov G‘iyosiddin Najmiddin o‘g‘li
University of Business and Science
Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
giyosiddinakramov22@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada global va mintaqaviy xavfsizlik tizimiga jiddiy tahdid soluvchi destruktiv fenomenlar – terrorizm va ekstremizmning konseptual asoslari, etimologik mohiyati hamda ularning o‘zaro farqlovchi mezonlari, ilmiy-nazariy mazmuni tahlil qilinadi. Mazkur hodisalarning kelib chiqishi, g‘oyaviy asoslari, namoyon bo‘lish shakllari hamda jamiyat xavfsizligiga ta’siri ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, terrorizm va ekstremizm o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar tizimli ravishda ochib berilib, ularni bir-biridan ajratib talqin qilishning nazariy va amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: terrorizm, ekstremizm, radikalizm, mafkura, zo‘ravonlik, milliy xavfsizlik, huquqiy baho.

Kirish. Hozirgi globallashuv va keskin geosiyosiy transformatsiyalar davrida xalqaro munosabatlar tizimi hamda milliy davlatlarning institutsional barqarorligiga jiddiy putur yetkazuvchi eng xavfli asimmetrik tahdidlardan biri – bu terrorizm va ekstremizm fenomenlaridir. Mazkur destruktiv hodisalar nafaqat alohida olingan mintaqalar xavfsizligiga, balki butun global sivilizatsiyaning fundamentiga qarshi qaratilgan transmilliy xarakterga ega harakatlar majmuini o‘zida namoyon etmoqda. Akademik doiralarda, siyosiy diskursda hamda xalqaro huquq normalarini ishlab chiqish jarayonida ushbu ikki tushuncha ko‘pincha yonma-yon, ba’zan esa bir-birining o‘rnida sinonim sifatida qo‘llanilishi kuzatiladi. Biroq, davlatning ichki va milliy xavfsizlik tuzilishini mustahkamlash, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning profilaktik strategiyalarini ishlab chiqish nuqtai nazaridan, terrorizm va ekstremizm o‘rtasidagi konseptual, etimologik va funksional chegara chiziqlarini aniq belgilab olish kechiktirib bo‘lmaydigan ilmiy-amaliy zarurat hisoblanadi. Bu hodisalar global xarakter kasb etib, alohida hudud yoki davlat doirasidan chiqib, butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Ayniqsa, siyosiy beqarorlik, ijtimoiy tengsizlik, mafkuraviy bo‘shliq va axborot makonining nazoratsiz kengayishi ekstremistik va terroristik g‘oyalarning tarqalishi uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Ilmiy va huquqiy adabiyotlarda terrorizm va ekstremizm ko‘pincha o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida talqin qilinadi. Biroq ularni aynan bir xil hodisa deb hisoblash nazariy va amaliy jihatdan noto‘g‘ridir. Chunki ekstremizm asosan g‘oyaviy-mafkuraviy hodisa bo‘lsa, terrorizm ana shu g‘oyalarning zo‘ravonlik orqali amalga oshirilish shaklidir. Shu bois mazkur tushunchalar o‘rtasidagi farqlarni aniq belgilash ularning oldini olish va ularga qarshi kurashishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ekstremizm va terrorizm hodisalari ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning eng yuqori, radikallashgan nuqtasi bo‘lib, ular jamiyatdagi qadriyatlar inqirozi, ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv, marginalizatsiya hamda mafkuraviy bo‘shliq kabi bir qator murakkab omillar sintezi natijasida yuzaga keladi. Bugungi kunda xalqaro xavfsizlik sohasidagi yetakchi ekspertlar va konfliktologlar ta’kidlashicha, mazkur asimmetrik tahdidlarga qarshi samarali kurashishning asosiy sharti – bu oqibatlar (ya’ni terrorizm) bilan kurashishdan ko‘ra ko‘proq sabablar va mafkuraviy manbalar (ya’ni ekstremizm) ustida ishlashdir [1]. Shuning uchun tadqiqotchilar oldida turgan birlamchi vazifa bu qanday qilib radikal g‘oyalar onglarni egallashi va oxir-oqibat siyosiy zo‘ravonlik, ya’ni terror harakatlariga aylanib ketishining ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarini ochib berishdan iborat. Ayni paytda, ushbu atamalarning huquqiy talqini masalasi ham murakkab bo‘lib qolmoqda. Ekstremizm asosan tafakkur tarzi, dunyoqarash va yashirin destruktiv g‘oyalar shaklida namoyon bo‘lsa, terrorizm ana shu g‘oyalarning amaliyotga jismoniy zo‘ravonlik orqali ko‘chirilishidir [2]. Shu sababli, milliy qonunchilik tizimlarida har ikki holatni yuridik jihatdan to‘g‘ri malakalash huquqiy davlat prinsiplarini saqlab qolgan holda adolatli jazo muqarrarligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiyasi ham ayni shu yondashuvga, ya’ni muammoning ildiziga qarshi kurashish prinsipi asosiga qurilgan bo‘lib, ekstremistik g‘oyalarning jamiyatga singib ketishining oldini olishga qaratilgan kompleks ma’rifiy-huquqiy choralarni nazarda tutadi [3].

Qolaversa, axborot makonining raqamli texnologiyalar vositasida misli ko‘rilmagan darajada kengayib borayotganligi ekstremistik kuchlarga o‘zlarining destruktiv yondashuvlarini geografik chegaralarsiz tarqatish, auditoriya ongini manipulyatsiya qilish hamda ijtimoiy marginal qatlamlarni radikallashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa tadqiqot obyektining dolzarbligini yana bir karra tasdiqlaydi. Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi ham aynan shu ziddiyatli masalalarni akademik darajada chuqur tahlil qilish, terrorizm va ekstremizmning etimologik mohiyatini, ularni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-siyosiy omillarni hamda mazkur ikki fenomenning o‘zaro bir-birini farqlovchi asosiy kognitiv-amaliy mezonlarini tizimli ravishda asoslab berishga qaratilgan.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli-funksional tahlil va qiyosiy-huquqiy yondashuv tanlab olindi. Mazkur metodlar destruktiv mafkuralarning shakllanish dinamikasini hamda ularning jismoniy zo‘ravonlik harakatlariga transformatsiyalanish bosqichlarini aniqlash imkonini beradi.

Muhokama va natijalar. Ilmiy adabiyotlarda ekstremizm jamiyatda mavjud bo‘lgan siyosiy, huquqiy va axloqiy me’yorlarni inkor etuvchi, murosasizlikka asoslangan o‘ta radikal qarashlar tizimi sifatida ta’riflanadi. “Ekstremizm” atamasi lotincha *extremus* – “eng chekka”, “o‘ta keskin” ma’nolarini anglatib, uning mohiyatida muvozanatdan chiqish va mutaassiblik yotadi. Ekstremizm, birinchi navbatda, jamiyatdagi mavjud huquqiy va axloqiy normalarni mutlaq rad etishga asoslangan radikal g‘oyalar majmuidir [4]. Uning o‘ziga xosligi shundaki, u ko‘pincha “haqiqiy adolat” yoki “ilohiy qonuniyat” niqobi ostida namoyon bo‘ladi. Ekstremizmning mohiyati – murosasizlikdir. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, ekstremistik faoliyat ko‘pincha axborot-targ‘ibot xarakteriga ega bo‘lib, u shaxsning ongi va ijtimoiy xulq-atvorini manipulyatsiya qilish orqali uni terrorizmga tayyorlaydi. Ekstremizm tuchunchasining bir qancha turlari mavjuddir. Masalan, siyosiy ekstremizm, diniy ekstremizm, milliy yoki etnik ekstremizm, ekologik ekstremizm, iqtisodiy ekstremizm, kiber ekstremizm va boshqa ko’rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Ularning orasida “Din” niqobi ostidagi ekstremizmning ko‘rinishi butun insoniyat tomonidan alohida e’tiborli holat sfatida qaralmoqda.

«Diniy ekstremizm» - jamiyat uchun an’anaviy bo‘lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g‘oyalarni aldov va zo‘rlik bilan targ‘ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi. Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddizm, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar – papa hokimiyati dushmanlarini ta’qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo‘lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida baholaydilar. Ammo hozirda islom dini

niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a'zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Siyosatshunoslik va huquqshunoslik manbalariga ko'ra, ekstremizm avvalo ong va tafakkur bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. U shaxs yoki guruhning dunyoqarashida shakllanib, mavjud ijtimoiy tartibni butunlay rad etish, zo'ravonlikni g'oyaviy jihatdan oqlash va "maqsad yo'lida har qanday vosita joiz" degan qarashni ilgari suradi. Ekstremistik mafkura ko'pincha jamiyatni keskin qarama-qarshi tomonlarga ajratadi va murosani inkor etadi. Muhim jihati shundaki, ekstremizm har doim ham bevosita jinoyat yoki zo'ravonlik shaklida namoyon bo'lmaydi. U dastlab targ'ibot, mafkuraviy ta'sir, psixologik bosim va axborot manipulyatsiyasi ko'rinishida yuzaga chiqadi. Shu sababli ekstremizm ilmiy adabiyotlarda "bilvosita xavf tug'diruvchi hodisa" sifatida baholanadi.

"Terror" (lotincha – "qo'rqitish", "vahimaga solish") – aholining keng qatlamlarida dahshat va qo'rquv uyg'otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir. Terror – ommaviy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlikdan hamda zo'ravonlik qilish bilan tahdid solishdan muntazam foydalanishdir. Shunday qilib, «terror» dushmanni jismoniy zo'ravonlik yo'li bilan qo'rqitish, hatto uni jismonan yo'q qilishni anglatadi. «Terrorizm» esa terror amaliyotidir. Bu ikki tushunchani shu tarzda chegaralash maqbul bo'lsa, u holda terrordan kelib chiqqan terrorizm aslo yangi hodisa bo'lmay, bizgacha asrlar qo'ynidan yetib kelgan, deb hisoblash mumkin.

Terrorizm ilmiy manbalarda siyosiy, diniy yoki mafkuraviy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlik yoki zo'ravonlik tahdididan foydalanishga asoslangan jinoyat faoliyati sifatida talqin qilinadi. Terrorizm tushunchasining markazida qo'rqitish, vahima uyg'otish va jamiyat barqarorligini izdan chiqarish yotadi. Terrorizm ekstremizmdan farqli o'laroq, faqat g'oya emas, balki strategik qo'rqitish vositasidir. Uning bosh maqsadi – aholi o'rtasida vahima uyg'otish orqali davlat hokimiyatiga siyosiy talablar qo'yish yoki davlat boshqaruv tizimini izdan chiqarishdir. Terrorizm har doim jismoniy harakat (portlash, o't qo'yish, garovga olish) shaklida bo'lib, u ekstremistik mafkuraning amaliy natijasi hisoblanadi. Huquqiy adabiyotlarga ko'ra, terrorizm ekstremizmdan farqli ravishda faqat g'oya bilan cheklanib qolmaydi, balki amaliy harakat orqali namoyon bo'ladi. Terroristik harakatlar odatda oldindan rejalashtirilgan, tashkiliy harakterga ega bo'lib, tinch aholiga qarshi qaratilgani bilan ajralib turadi. Aynan shu jihati terrorizmni ijtimoiy jihatdan eng xavfli jinoyatlardan biriga aylantiradi.

Bu masalaga o'z diqqat-e'tiborini qaratgan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga, ilmiy xulosalarga qaraydigan bo'lsak, ularning qarashlarini turlicha yondashuvlar asosida tasniflash mumkin bo'ladi. Tadqiqotchi Sh. G'oyibnazarovning ta'kidlashicha, terrorizmga 200 ga yaqin ta'rif berilgan bo'lsa-da, ularning birontasi umum-e'tirof etilmagan, bu boradagi tortishuvlar, bahs-munozaralar hanuz davom etmoqda [5]. To'g'ri, ko'pchilik terrorizm nima degan savolga o'ziga xos ravishda javob bera olsa-da, ular bu hodisa haqida umumiy, mavhum tushunchaga egalar, xolos. Bu o'z navbatida insoniyat hayotining murakkablashib borishi, uning yangidan-yangi faoliyat sohalarining tarkib topib yuksalib borishi, mamlakatlar, xalqlar o'rtasida o'zaro hamkorlikning kuchayib borishi bilan belgilanadi. Negaki terrorizm ham shu sohalarda ro'y bermoqda, bunday hamkorlikning, yutuqlarning mevasidan bahramand bo'lmoqda. Bu jarayonlarning dinamik xarakteri terrorizm atamasiga ta'rif berishni qiyinlashtirmoqda.

Avvalambor shuni qayd etish zarurki, ko'pgina tadqiqotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, terrorizm va ekstremizmning kelib chiqish davri bilan bog'liq xulosalarda yagonalik mavjud emas. Bu hodisa murakkab bo'lib, uning qachon kelib chiqqanligi xususida yagona bir fikrni aytish qiyin. Tarixchi, siyosatshunos olimlarning terrorizmning kelib chiqishi xususidagi fikrlari bir-biridan keskin farq qiladi. Tadqiqotchi Sh. G'oyibnazarov qayd etib o'tganimizdek, insoniyat paydo bo'lganidan buyon terrorizm unga doimiy hamkorlik qilib keladi degan fikrni ilgari suradi. Bunday yondashuv tarafdorlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular terrorizmning tarixi asrlar qa'riga kirib boradi, deb hisoblashadi. Bu yondashuv tarafdorlari har qanday siyosiy qotillikni terrorizmga tenglashtirib, uning

kelib chiqish tarixini antik davrga olib borib taqashadi. Jumladan, tadqiqotchi Ye. Stepanov shunday yozadi: «Olimlar va siyosatchilarning katta qismi orasida terrorizmning revolyutsion kelib chiqishi haqidagi fikr tarqalganini maxsus ta'kidlab o'tish zarur. Uning boshlanishini odatda, XVIII asrdagi fransuz revolyutsiyasiga hamda 1917-yilda Rossiyada sodir bo'lgan revolyutsiyaga olib borib taqashadi. Aslida terrorizm juda qadim zamonlardan boshlangan, amaliyoti esa turli shakllarda xilma-xil tarixiy davrlarga va ko'plab siyosiy oqimlarga xosdir» [6].

Terrorizmning asosiy maqsadi jamiyatda doimiy qo'rquv muhitini yaratish orqali davlat organlari yoki jamoatchilik ongiga bosim o'tkazishdan iborat. Shu sababli xalqaro huquq normalarida terrorizm insoniyatga qarshi jinoyat sifatida baholanadi. Terrorizm zamonaviy ilmiy doiralarda uch nuqtai nazardan, ya'ni jinoiy faoliyat, terroristik guruh va terroristik ta'limot sifatida qaraladi. Ko'pchilik mutaxassislar terrorizm ostida ijtimoiy guruhlar tomonidan siyosiy maqsadlar yo'lida kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan qo'rqitishni e'tirof etadilar.

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, terrorizm siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarining yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlardir.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, terrorizm va ekstremizm o'zaro uzviy bog'liq, biroq mazmunan turli hodisalardir. Ekstremizm terrorizm uchun mafkuraviy zamin vazifasini bajaradi. Ya'ni ekstremistik qarashlar terroristik faoliyatni oqlovchi va uni "legitim" ko'rsatishga urinuvchi g'oyaviy asosni shakllantiradi. Asosiy farq shundaki, ekstremizm — bu g'oya va qarashlar tizimi, terrorizm esa ushbu g'oyalarning zo'ravonlik orqali amalga oshirilishidir. Ekstremizm ko'proq ongga ta'sir qilsa, terrorizm bevosita jismoniy zarar yetkazadi. Shu nuqtai nazardan, har bir ekstremist terrorchi bo'lishi shart emas, ammo terrorchilik faoliyati deyarli har doim ekstremistik mafkura bilan asoslanadi.

Ilmiy adabiyot, xalqaro hujjatlar va ayrim mamlakatlarning jinoiy qonunchiligining tahlili terrorizm jinoiy faoliyat sifatida quyidagi to'rtta o'ziga xos jihatlarga ega ekanini ko'rsatadi:

1. Terrorizm amaliy ijtimoiy xavf uyg'otadi;
2. Terrorizm oddiy kriminal jinoyat kabi xufiyona tarzda emas, balki namoyishkorona, jamiyatning ko'zi oldida va oshkora bo'lishi aniq bo'lgan shaklda amalga oshiriladi;
3. Terrorizm atayin jamiyatda qo'rquv, notinchlik va tushkunlik uyg'otishga qaratiladi;
4. Terroristik harakatdagi terrorchilar ko'zlagan psixologik ta'sir aslida bevosita qurbonlarga emas, balki jamiyatda qaror qabul qila oladigan doiralarga (hukumat, siyosiy elita va h.k.) nisbatan yo'naltirilgan.

«Xalqaro terrorizm» tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlar ichida beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U og'ir jinoyatlardan bo'lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi. Xalqaro terrorizm fenomeni ayniqsa, XX asr boshlarida avj ola boshladi. Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikning yo'lga qo'yilishi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Masalan, 1934-yilda Madridda bo'lib o'tgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag'ishlangan konferensiyada terrorizmning «Aholini dahshatga solish va har qanday ijtimoiy tashkillashuvni yo'q qilish maqsadida biror-bir vositani qo'llash» degan ma'nodagi ta'rifi qabul qilinishiga erishilgan. 1937-yilda 20 dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi Konvensiyani imzoladi.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta'kidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko‘proq uchragan bo‘lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus va poyezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko‘plab tasodifiy kishilarning qurbon bo‘lishiga olib keladigan qo‘poruvchilikni amalga oshirishga e'tibor berilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo‘lganlardan ko‘ra uning guvohlariga qaratilgan. Xalqaro terrorchilik harakatlarining asosiy belgilari:

- Xalqaro huquq himoyasidagi obyekt yoki subyektlarga qarshi qaratilgani;
- Davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;
- A'zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari bo‘lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;
- Xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanilishi.

Ilmiy adabiyotlarda aynan shu farq ularning huquqiy bahosida ham aks etishi ta'kidlanadi. Ekstremizm mafkuraviy tahdid sifatida baholansa, terrorizm og‘ir jinoyat sifatida jinoiy javobgarlikka tortiladi. Terrorizm va ekstremizm tushunchalarining o‘zaro nisbatini tahlil qilishda ularning namoyon bo‘lish darajasi, qo‘llaniladigan uslubiyot hamda huquqiy-siyosiy oqibatlari asosiy differensiallovchi mezonlar bo‘lib xizmat qiladi. Birinchi navbatda, ekstremizm bu – mafkuraviy fundament va dunyoqarash shakli bo‘lib, u mavjud ijtimoiy-siyosiy tartibotga nisbatan murosasizlik va radikal qarashlarni mutlaqlashtirish kabi kognitiv elementlar yig‘indisidir. Ekstremist o‘zining g‘oyaviy maqsadlarini targ‘ibot-tashviqot orqali amalga oshirishga intiladi. Bu bosqichda harakat asosan jamiyat ongini radikallashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bundan farqli o‘laroq, terrorizm ekstremistik g‘oyalarning amaliyotdagi eng yuqori ko‘rinishidir. Agar ekstremizm "fikrlar urushi" bo‘lsa, terrorizm – bu aniq harakatlar, ya'ni strategik qo‘rqitish instrumentidir. Terrorizmning o‘ziga xosligi shundaki, u har doim jismoniy tajovuz va vayronagarchilik orqali jamiyatda vahima uyg‘otishni maqsad qiladi. Bu yerda asosiy farq "qurol"da namoyon bo‘ladi: ekstremizmda asosiy qurol – radikal g‘oya bo‘lsa, terrorizmda – portlovchi moddalar va qurol-yarog‘dir. Yana bir muhim jihat shundaki, har qanday terrorist o‘z mohiyatiga ko‘ra ekstremist hisoblanadi, chunki uning zo‘ravonlik harakatlari ortida doimo radikal bir mafkura yotadi. Biroq, har qanday ekstremistni to‘g‘ridan-to‘g‘ri terrorist deb atash huquqiy jihatdan noto‘g‘ridir. Ekstremist radikal g‘oyalar tarafdori bo‘lishi mumkin, lekin u hali bevosita jismoniy zo‘ravonlikka o‘tmagan bo‘lishi mumkin. Shu bois, huquqiy nuqtai nazardan ekstremizm ko‘pincha profilaktik choralarni talab qilsa, terrorizm o‘ta og‘ir jinoyat sifatida qat'iy jazolanishi shart [7].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, terrorizm va ekstremizm bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, ularni aynan bir xil hodisa sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asossizdir. Ular radikallashuv jarayonining turli fazalaridir. Ekstremizm jamiyatni ichkaridan yemiruvchi g‘oyaviy poydevor vazifasini o‘tasa, terrorizm ushbu poydevor ustiga qurilgan qurolli tajovuzdir. Ularning o‘zaro farqlarini tizimli tahlil qilish, asimmetrik tahdidlarga qarshi kurashda nafaqat kuch ishlatish uslublaridan, balki chuqur intellektual va ijtimoiy-psixologik metodlardan foydalanish zarurligini tasdiqlaydi. Mazkur tushunchalar o‘rtasidagi farqlarni aniq anglash ekstremizmning erta bosqichidayoq oldini olish, terrorizmga qarshi kurashda esa samarali huquqiy va mafkuraviy mexanizmlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoffman, B. (2006). *Inside Terrorism*. Columbia University Press.
2. Schmid, A. P. (2013). *Radicalisation, De-Radicalisation, Counter-Radicalisation: A Conceptual Discussion and Literature Review*. ICCT.
3. O‘zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi Qonuni. (2000-yil 15-dekabr).

4. Neumann, P. R. (2009). *Old and New Terrorism*. Polity Press.
5. G‘oyibnazarov, Sh**.** (2009). *Terrorizm: mohiyati, xususiyatlari va shakllari*. Toshkent: Akademiya.
6. Stepanov, Ye. I. (2005). *Sovremenniy terrorizm: sostoyaniye i perspektivi*. Moskva: Editorial URSS.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. (2018-yil 30-iyul).
ions. *Global Counter-Terrorism Strategy*. — 2006**.**